

**ORNITONIM TARKIBLI TURG‘UN BIRIKMALARNING DISKURSDA
VOQEALANISHINING LINGVOMADANIY JIHATLARINI**

M.A.Yigitaliyeva
KSPI, o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ornitonim komponentli turg‘un birikmalarning diskursda voqeanishining lingvomadaniy jihatlarini va ularning nazariy va qiyosiy talqini tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: ornitonim, lingvomadaniy, leksik, semantic, ekspressiv

Аннотация

В данной статье описаны лингвокультурологические аспекты встречаемости в дискурсе устойчивых соединений с орнитонимическим компонентом и их теоретическая и сопоставительная интерпретация.

Ключевые слова: орнитоним, языковой, культурный, лексический, семантический, экспрессивный.

Annotation

This article describes the linguistic and cultural aspects of the occurrence of stable compounds with an ornitonymous component in discourse and their theoretical and comparative interpretation.

Key words: ornitonym, linguistic, cultural, lexical, semantic, expressive

Hozirgi tilshunoslik so‘zni tovushli jihat bilan mazmunning ajralmas birligi, gap ushbu birligining til tuzilmasining boshqa elementlari bilan turli-tuman aloqalarda namoyon bo‘ladigan leksik grammatik shakllarning murakkab majmui sifatida talqin qiladi.

Tildagi so‘zlar ajralgan holda amal qilmaydi, balki boshqa so‘zlar bilan har xil munosabatlarga kirishib, muayyan guruhlar yoki tizimlarni hosil qiladi. Ular bir-biri bilan leksik ma‘noning umumiyliги negizida (leksik semantik guruhlar), grammatik ma‘nolarning umumiyliги asosida (leksik grammatik sinflar yoki nutq bo‘laklari), genetik umumiylik negizida (etimologik guruhlar) birlashishi mumkin. Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, leksik-semantik guruhlarini ajratib ko‘rsatishda tilshunoslar har xil tadqiqot metodlarini qo‘llashga harakat qilish, jumladan, komponentli tahlil usullari asosida amalga oshiriladigan bir xillashtirish metodi keng ishlatiladi (ko‘p bosqichli definitson tahlil, lug‘aviy definitsiyalar tahlili). Bixillashtirish metodi

birinchi marta Sh.Balli tomonidan joriy etilgan. U "faqat o'zida jam bo'lgan g'oyani eng sodda, eng obyektiv va eng mavhum shaklda ifodalaydigan, so'z bilan birxillashtirish mumkin, deb yozgan edi.¹ Bir xillashtiruvchi (identifikator) so'zlar leksik – semantik guruhlar birlashgan so'zlarning umumiy kategoriyali ma'nolarni o'z ichiga oladi.

Quyidagi ayrim ornitonim komponentli turg'un birikmalarning diskursda voqealanishining lingvomadaniy jihatlarini ko'rib o'tsak.

1. *The cattle sniffed and sighed, pangling their bells and then, and the chickens in the coop stirred uneasily as if overwhelmed.* (H. Garland, p.H)

Jonivorlar maysalarni hidlashar va pishqirib qo'yishar, vaqti – vaqti bilan bo'ynidagi qo'ng'iroqlar jing'irlar va tovuqxonadagi jo'jalar xuddi qizib ketganday qimirlab qolishdi.

Bu misolda jo'jalar hech qanday konnotativ ma'no yoki ekspressivlikni ifodalamaydi. Ular atrof – muhit hovli va ayniqsa tovuqxonadagi vaziyatni ifodalashga xizmat qilishadi. Bu yerdagi metaforizatsiya jo'jalarning tovada yog'da qovurilayotgan paytidagi holat va harakatini tasvirlashga bag'ishlangan, chunki katta olovda qovurilayotgan jo'ja xuddi tovaning issig'idan qochib boshqa tomonga uchirilayotgan, salqinroq joy topishga uringanday ko'rinadi. Avtor xuddi shu kabi holatni tovuqxonada kuzatar ekan, bu harakatlar jonivorlar, qoramollarning pashshalarini quvish uchun bosh silkitishi va pishqirishiga hamohang ravishda yaratilganini tasvirlab beradi.

2. *Canton – flanned gulls flew near and far.* (S. Crane. P.H)

Qattiq hayajonlanishi tuklarining xurpayishidan ko'rinib turgan oq chorloqlar yaqin va uzoqlarda uchib yurishardi.

Bu yerda canton – flanned ta'rifi "tuki xurpaygan dag'al junli mato" ma'nosini beradi. Qushlarning suvda namlangan bo'lsa-da yopishib silliqanib qolmagan patlari xurpayib turishar va bu narsa S.Kreynga cho'milib chiqqanda artinadigan pahmoq sochiqning materialini eslatardi. Albatta, bu yerda oq chorloqlarning suvdan baliqni yemish sifatida tutib oziqlanishi tasvirlangan bo'lib, uning patlari namlanmaslik va birbiriga yopishib qolmaslik hossasiga ega, natijada chorloqlar to'lqin atrofida to'lqinlar bilan baliqlar uchun olishar va namlanib, og'irlashib ketishdan qo'rqmasdi.

3. Ekspressiv ma'noda ishlatilmagan ornitonimlar ko'chma ma'noda ishlatilgan bo'lishi mumkin. Bu holat ko'proq qiyosiy qurilma va oborotlarda kuzatilishi mumkin. Masalan:

Stephano: Here swear then how though escapeds.

¹ Балли Ш. Французская стилистика / Пер. с фр. Долинина К.А. - М., 1961.

Trinaeto: swam ashore, man like a duck I can swim like a duck, I'll be swoom (W. Shakespaere, Tempest atz Sc.z)

Stefano: Xo 'sh qanday qochishni eplading?

Trinkulo: Misli o 'rdak suzib chiqdim qirg 'oqqa men,

Men o 'rdakday suza olaman, ont ichaman bu rost.

Bu ikki do'stning suhbatida Trinkuloning qanday qilib qirg'oqqacha suzib chiqqani, omon qolganini bilmoqchi bo'ladi. Muallif bu maqsadlarda yuzma-yuz kela olishi va kerak bo'lsa jo'shqin, notinch to'lqinlar ustidan uchib ham o'ta olishini ham ko'rsatar va buning uchun "o'rdakdey" degan so'z ishlatilgan.

Ayrim holatlarda bir qushning belgilari boshqa qushning belgilariga o'xshatilishi kuzatiladi. Bu kabi qiyosiy qurilmalar badiiy diskursda uchraydi.

Masalan:

The bird flew parallel to the boat and did not circle, but made short sidelong jumps in the air in chicken fashion. (S. Crane the open boat. pH)

Qush qayiqqa paralel uchib borgan, lekin aylanmay uchardi, ba'zan esa xuddi jo'ja kabi go'yo yon tomonga qisqa sakrashlar qilganday uchib borardi.

Mualliflarning qushlar uchishi va ularning osmonda qiladigan harakatlar haqida yaxshi bilish kerakligi ushbu misolda namoyon bo'lgan.

Ornitonimlar yordamida ekspressivlikni ifoda qilish juda kam uchraydigan hodisa emas. Bu kabi ekspressivlik his – hayajon to'yingan kontekstda uchraydi. She'riyatda bu kabi "qush" simvoli ifodalangan kontekstlar ko'plab uchraydi. Masalan:

And the desire that hope makes to be to still.

By the fear flying beside it or above.

A falcon fledged to follow a fledging dove.

(A.C.Swineburne. Apologial English Sonnet).

Tarjimasi:

Agar bu qo'rquv bo'lmasa, dahshat emas, yana qanaqa?

Mana qirg'iy va kaptar, kim kimni maxv etar!

Bu kontekstda biz ehtirosning (*desire-istak*) qo'rquvga (*fear*) zidlanishi yordamida bir vaziyat namoyon qilinmoqda-ki, kuch – qudratga to'lgan yovvoyi qush – *qirg'iy* (*falconfledged*) – tarjimasi "qanot chiqargan lochin" qo'rquv hali yosh tarjibasiz, endigina qanot yoza boshlagan kaptar bolasini quvlab uchmoqda (*fledging dove* – *endigina uchishni o'rganib olgan kaptar*) – uyg'onib kelayotgan ehtiros razm bo'lib xizmat qilmoqda.

Yana bir misolni ko'raylik.

*The merry cuckow, vessenger of Spring,
His frompet shrill both thrise already sounded*

(E.Spenser, From Amoretti)

O'rmon kakkusining quvnoq sayrashi

Bahorning kelganini uch bor xabarladi.

Bu she'rda qo'llanilgan cuckow – kakku bahorning kelganidan darak beruvchi qush ramziy ma'nosini beradi. (*Messenge of spring*). Bu konnotatsiya “*merry*” epiteti bilan kuchaytirilgan. Bu so'zning ma'nosi esa bu kontekstda og'zaki nutqdagi xushchaqchaq, quvnoq ma'nolarini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Балли Ш. Французская стилистика / Пер. с фр. Долинина К.А. - М., 1961.
2. Денисова А.П. Концепт “птица” в испано и язычной лингвокультуре – Актуальные преблемы современной иберо – романистики тезисы конференции (МГУ им. М.В. Ломоносов М. 2004, –16-18с